

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MUHITIDA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li, tayanch doktorant

Farg'ona davlat texnika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17063017>

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida yuzaga keladigan makro va mikroiqtisodiy risklar tahlil qilinadi va ularni samarali boshqarish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Iqtisodiy o'sishning ekologik, ijtimoiy va moliyaviy jihatlarini hisobga olingan holda, tizimli yondashuv asosida risklarni identifikatsiyalash, baholash va minimallashtirish vositalari ko'rib chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlash uchun zamonaviy risk-menejment yondashuvlari va xalqaro tajribalar asosida takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiy risklar, risklarni boshqarish, tizimli yondashuv, moliyaviy xavflar, ekologik barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik, strategik rejalashtirish, yashil iqtisodiyot.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Bugungi global iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar, balki ekologik, ijtimoiy va institutsional omillar bilan ham baholanmoqda. Ayni paytda, pandemiyalar, global isish, moliyaviy inqirozlar va geosiyosiy beqarorliklar kabi risklar iqtisodiy tizimlarning barqarorligiga tahdid solmoqda. Shu sababli, barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida risklarni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, o'sib borayotgan yashil iqtisodiyot talablariga mos holda yangi risk omillarining paydo bo'lishi, ularni aniqlash va oldini olish tizimlarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va risklarni boshqarish o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan yo'nalish bo'lib, bu sohada xalqaro va milliy darajadagi bir qator muhim ilmiy manbalar mavjud. Masalan, Vyatkin, Gamza va

Maevskiy¹ (2015) o‘zlarining “Risk-menejment” nomli darsligida iqtisodiy va moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish usullarini tizimli tarzda bayon etgan. Ushbu asarda risklarni aniqlash bosqichida ko‘rsatkichlar monitoringi, tahliliy modellardan foydalanish va ehtimollar asosidagi baholash muhim deb topiladi. Mazkur yondashuv barqaror iqtisodiy rivojlanishning tahdidlarini erta bosqichda aniqlashda foydalidir. Jeffrey Sachs² (2015) tomonidan yozilgan “The Age of Sustainable Development” asari esa global miqyosdagi barqaror rivojlanish strategiyalarida risklar qanday ko‘rilishini tahlil qiladi. U iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va ijtimoiy tengsizlikni asosiy xavf omillari sifatida ko‘rsatadi. Muallifning fikricha, rivojlanish jarayonida risklarni e‘tibordan chetda qoldirish o‘lishning doimiyligini izdan chiqaradi. Hellwig³ (2013) esa barqarorlik va risklar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni ko‘rsatadi. Uning yondashuvi shundaki, risklarni faqat xavf emas, balki innovatsiyalar uchun imkoniyat sifatida ko‘rish lozim. Risklar strategik boshqaruv vositasiga aylantirilishi mumkin, bu esa milliy darajadagi barqaror siyosat yuritishda muhim. OECD⁴ (2022) tomonidan chop etilgan “Green Growth and Sustainable Development” hisobotida yashil o‘lishga o‘tish jarayonida yuzaga keladigan risklar va ularni siyosiy jihatdan qanday boshqarish kerakligi ko‘rsatilgan. Hisobotda resurslar samaradorligi, ekologik soliq islohoti va moliyaviy barqarorlikka ta’siri alohida tahlil qilingan. Bu esa yashil iqtisodiyotda risk-menejment strategiyalarining alohida rol o‘ynashini ko‘rsatadi. A.Mahmudov⁵ (2020) O‘zbekiston misolida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash yo‘llarini ko‘rib chiqadi. U milliy iqtisodiy xavflarni klassifikatsiya qiladi va ularni boshqarishda davlat ishtirokini kuchaytirishni taklif etadi. Uning tadqiqoti o‘zbek iqtisodiyotida muvozanatli rivojlanish uchun risklarni identifikatsiya qilish va tizimlashtirishning amaliy ahamiyatiga urg‘u beradi.

¹ Vyatkin, V. N., Gamza, V. A., & Maevskiy, F. V. (2015). Risk-menedzhment (2nd ed.). Moskva: Yurayt. <https://urait.ru/bcode/426799>.

² Sachs, J. D. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press. <https://cup.columbia.edu/book/the-age-of-sustainable-development/9780231173148>

³ Hellwig, T. (2013). Sustainable Risk Management: Strategies, Technology and Finance. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-34288-9>

⁴ OECD. (2022). Green Growth and Sustainable Development. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/greengrowth/>

⁵ Mahmudov, A. (2020). Iqtisodiy xavfsizlik asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot.

Muammoni hal qilish yo‘llari. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash jarayonida duch kelinayotgan kompleks iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy risklar samarali boshqaruvni talab etadi. Mavjud muammolar, xususan, iqtisodiy beqarorlik, iqlim o‘zgarishi, resurs tanqisligi, moliyaviy beqarorlik va institutsional zaifliklar iqtisodiy tizimlar barqarorligiga tahdid solmoqda.

Risklarni boshqarish mexanizmlari har bir mintaqada o‘zining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib shakllangan. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarining risk menejmenti bo‘yicha yondashuvlari mazmunan bir-biridan farq qiladi, biroq ularning barchasi barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishni umumiy maqsad sifatida belgilaydi.

1-jadval

Risklarni boshqarish bo‘yicha mintaqaviy modellarning taqqoslovchi jadvali⁶

Mintaqa	Risk yondashuvi	Asosiy xususiyatlari	Prioritet risk turlari	Barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligi
AQSH	ERM – Enterprise Risk Management (COSO modeli)	Xususiy sektor va davlat uchun umumiy strategik risk baholash modeli. Risklar butun tashkilot darajasida baholanadi.	Moliyaviy, operatsion, texnologik va siyosiy risklar	Risklar strategik qarorlar bilan bog‘lanadi; barqarorlikni ta‘minlovchi ichki nazorat tizimlari muhim rol o‘ynaydi.
Yevropa Ittifoqi	Green Deal Risk Framework	Barqaror iqtisodiy o‘sish uchun yashil risklarni (ekologik va iqlimga oid) asosiy xavf omili sifatida ko‘ruvchi yondashuv	Iqlim o‘zgarishi, karbon risklari, ijtimoiy tengsizlik risklari	Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali risklarni pasaytirish strategiyasi; ekologik regulatsiyalar kuchli.
Osiyo (Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur)	Resilience-based Risk Management	Moslashuvchanlik va innovatsion texnologiyalar asosida risklarga tayyorgarlik va bardoshlilikni kuchaytirish	Tabiiy ofatlar, texnogen xavflar, global ta‘minot zanjiri uzilishi	Innovatsiyalar orqali risklarni minimallashtirish; "smart city", "digital twin" kabi texnologiyalar asosida barqarorlikni ta‘minlash.

AQSH modelida, xususan, COSO asosidagi Enterprise Risk Management (ERM) yondashuvi orqali barcha turdagi risklar — moliyaviy, siyosiy, operatsion,

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

texnologik xavflar — tashkilot yoki iqtisodiyot miqyosida aniqlanadi, baholanadi va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan choralar ishlab chiqiladi. Bu yondashuvning kuchli tomoni — risklarni tashkilot darajasidagi strategik qarorlar bilan integratsiya qilishidadir. Biroq u ekologik yoki yashil iqtisodiyot risklarini ikkinchi planga qo'yadi, bu esa uzoq muddatli barqarorlik nuqtai nazaridan yetarlicha moslashuvchanlik bermasligi mumkin.

Yevropa modeli, aksincha, risklarni aynan barqarorlik doirasida ko'radi. Yevropa Yashil Bitimi doirasida ishlab chiqilgan risk menejmenti yondashuvi iqlim o'zgarishi, ekologik yomonlashuv va ijtimoiy tengsizlik kabi strukturaviy xavflarga e'tibor qaratadi. Bu modelda risklar iqtisodiy qarorlarning ekologik oqibatlari bilan birga baholanadi, ya'ni risklarni boshqarish — bu faqat iqtisodiy barqarorlik emas, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuv O'zbekiston uchun ham ahamiyatli bo'lib, yashil iqtisodiyotga o'tish davrida risklarni to'g'ri baholash imkonini beradi.

Osiyo modeli (Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur tajribalari) esa innovatsiyalar va texnologiyalar orqali risklarni boshqarishga asoslangan. Bu modelning asosiy g'oyasi — xavf tug'ilgach choralar ko'rish emas, balki ilgariroq tayyor bo'lish, ya'ni resilience (bardoshlilik) tamoyiliga tayanadi. Masalan, "smart city" texnologiyalari yordamida tabiiy ofatlar yoki logistika risklari avtomatik tarzda kuzatiladi va real vaqt rejimida ogohlantirishlar beriladi. Ushbu modelning ustunligi — moslashuvchanlik va raqamli transformatsiyaga asoslangan barqarorlikni ta'minlashidadir. Bu O'zbekiston uchun ayniqsa muhim, chunki u hozirgi paytda raqamlashtirish va "aqlli tizimlar"ni joriy qilish bosqichida turibdi.

Ushbu xavflarni kamaytirish va ularning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun strategik yondashuv asosida muammoni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

1. Risklarni erta aniqlash va monitoring qilish tizimini joriy etish.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi risklarni vaqtida aniqlash uchun ilg'or monitoring tizimlarini joriy etish lozim. Bu tizimlar sun'iy intellekt, katta

hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish orqali ichki va tashqi xavf omillarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beradi.

2. Tizimli risk tahlili va baholash metodologiyalaridan foydalanish. Strategik rejalashtirish jarayonida "Scenario Planning" va "SWOT + Risk" kombinatsiyalangan usullaridan foydalanish orqali iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tahdidlar darajasi va ularning ehtimoli tahlil qilinadi. Bu esa siyosat yurituvchilarga aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

3. Yashil iqtisodiyotni integratsiyalash orqali ekologik risklarni kamaytirish. Energiya samaradorligi, uglerod chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan xavflarni pasaytirish mumkin. Shu bilan birga, bu chora-tadbirlar iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ham xizmat qiladi.

4. Moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilish. Faoliyatning sug'urtalanmagan jihatlarini aniqlash va ularni sug'urtalash vositalari, shuningdek, hedjing va moliyaviy derivativlardan foydalanish orqali moliyaviy risklarni kamaytirish muhimdir. Bu, ayniqsa, pandemiya yoki geosiyosiy inqirozlar davrida ahamiyatlidir.

5. Xalqaro hamkorlik va ma'lumot almashinuvi mexanizmlarini kuchaytirish. Barqarorlik va risklar bo'yicha xalqaro hisobotlar va reytinglar asosida davlatlararo tajriba almashish, xalqaro tashkilotlar ko'magida risk monitoring tizimlarini uyg'unlashtirish muhim hisoblanadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Risklarni boshqarish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun ilmiy asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan va tizimli taklif-tavsiyalar zarur. Bu takliflar ilg'or xalqaro tajribalarni, statistik tahlillarni, iqtisodiy modellashtirish natijalarini hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni o'zida mujassam etgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Quyida keltirilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar barqaror iqtisodiy rivojlanish muhitida risklarni tizimli boshqarishning asosiy mexanizmlari sifatida ko'rib chiqiladi:

- “Strategik risk menejment platformasi”ni yaratish. Har bir tarmoq va hudud kesimida iqtisodiy xavflarni aniqlash va baholash imkonini beruvchi integratsiyalashgan raqamli platformani shakllantirish taklif etiladi. Bu platforma real vaqt rejimida indikatorlarni kuzatib, xatarlar xaritasini ishlab chiqadi.

- Barqaror rivojlanish indikatorlari asosida qarorlar qabul qilishni joriy qilish. Iqtisodiy siyosat qarorlarini qabul qilishda faqat YaIM o'sish sur'atlariga emas, balki ekologik yuklama, ijtimoiy tenglik va resurslarning yangilanish tezligi kabi ko'rsatkichlarga asoslangan kompleks indikatorlardan foydalanish zarur.

- Yashil investitsiyalarni rag'batlantirish siyosatini kuchaytirish. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilayotgan, ekologik toza ishlab chiqarishga o'tayotgan korxonalarga soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari asosida yordam ko'rsatish orqali risk darajasini pasaytirish mumkin.

- Milliy “Risk Indeksini” ishlab chiqish. Har yili yangilanib boradigan makroiqtisodiy, ekologik va institutsional xatarlarni ifodalovchi “Milliy Risk Indeksi” ishlab chiqilishi lozim. Bu hukumatga xavfga asoslangan rejalashtirishni joriy qilish imkonini beradi.

Kutilayotgan iqtisodiy samara. Risklarni tizimli va ilmiy asosda boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizmlarning joriy etilishi natijasida bir qator muhim iqtisodiy samaralarga erishish kutiladi. Birinchi navbatda, iqtisodiy barqarorlik darajasi oshadi, chunki mavjud va potensial xavflar erta aniqlanib, ularni kamaytirishga qaratilgan choralar amalga oshiriladi. Bu esa makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqaror ushlab turish va moliyaviy inqirozlar xavfini minimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion muhitning yaxshilanishi kutiladi. Investorlarga xavflar shaffof va boshqariladigan holatda taqdim etilsa, bu ularda ishonch uyg'otadi va investitsiya oqimlarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga asoslangan loyiha va tashabbuslarga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'payib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, ish o'rinlari kengayadi. Yana bir muhim jihat – resurslardan samarali foydalanish va ekologik tahdidlarning kamayishidir. Ekologik risklarni kamaytirish orqali uzoq muddatli sog'liqni saqlash xarajatlari pasayadi,

tabiiy resurslar bilan ishlashdagi isrofgarchiliklar oldi olinadi. Bu esa ekologik barqarorlik va ijtimoiy salomatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, davlat byudjetiga tushumlarning ortishi ham kutilmoqda. Barqaror iqtisodiy muhitda faoliyat yuritayotgan korxonalarning rentabelligi ortadi, soliqqa tortish bazasi kengayadi va byudjet intizomi kuchayadi. Natijada, davlat tomonidan ijtimoiy sohalarga yo'naltiriladigan moliyalashtirish hajmi oshadi.

Adabiyotlar:

1. United Nations Environment Programme. (2011). Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication. UNEP. <https://www.unep.org>.
 2. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2012). Green growth and the future of industrial production. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264178962-en>.
 3. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118. <https://doi.org/10.1257/jep.9.4.97>.
 4. Khamidov, B. (2021). Yashil iqtisodiyot asosida sanoat rivojlanishini baholash. *TDIU Ilmiy jurnali*, 4(2), 45–52.
 5. Vyatkin, V. N., Gamza, V. A., & Maevskiy, F. V. (2015). *Risk-menedzhment* (2nd ed.). Moskva: Yurayt. <https://urait.ru/bcode/426799>.
 6. Sachs, J. D. (2015). *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press. https://cup.columbia.edu/book/the-age-of-sustainable_development_9780231173148.
 7. Hellwig, T. (2013). *Sustainable Risk Management: Strategies, Technology and Finance*. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-34288-9>.
 8. OECD. (2022). *Green Growth and Sustainable Development*. Organisation for Economic Cooperation and Development. <https://www.oecd.org/greengrowth/>
- Mahmudov, A. (2020). *Iqtisodiy xavfsizlik asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.